

XALQARO REYTINGLARDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINING FAOLIYATI VA AHAMIYATI

Nurmamatova P.¹

Annotatsiya:

Mazkur ilmiy maqolada oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi o'rni, ularning baholash mezonlari hamda reyting tizimlarining ta'lim sifati va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot Times Higher Education (THE), QS World University Rankings (QS) va Round University Ranking (RUR) reytinglarining rasmiy metodologiyalariga asoslanadi. Maqolada xalqaro reytinglarning oliy ta'lim muassasalari rivojlanishidagi strategik ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro reytinglar, oliy ta'lim muassasalari, ta'lim sifati, ilmiy tadqiqot, THE, QS, RUR.

Times Higher Education (THE) reytingi metodologiyasi

Times Higher Education World University Rankings reytingi hozirgi kunda dunyodagi eng nufuzli va keng qamrovli reyting tizimlaridan biri hisoblanadi. Ushbu reyting universitetlarni besh asosiy yo'nalish bo'yicha baholaydi: ta'lim (o'qitish muhiti), tadqiqot muhiti, ilmiy ta'sir (iqtiboslar), xalqaro ko'rsatkichlar hamda sanoat bilan hamkorlikdan olinadigan daromad.

THE metodologiyasida ilmiy ta'sir (iqtiboslar) eng katta ulushga ega bo'lib, bu ko'rsatkich universitetda yaratilgan ilmiy bilimlarning global ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasini aks ettiradi.[1] Iqtiboslar Scopus ma'lumotlar bazasiga asoslanib hisoblanadi va fan yo'nalishlari o'rtasidagi farqlarni inobatga olgan holda normallashtiriladi.

Ta'lim muhiti ko'rsatkichlari esa professor-o'qituvchilar obro'si, talabalar va professorlar nisbati, doktorantura faoliyati va ilmiy darajaga ega xodimlar ulushi orqali baholanadi. Bu indikatorlar universitetning kadrlar tayyorlash salohiyati va akademik muhit sifatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, sanoat daromadi indikatorlari universitetlarning innovatsion faoliyati, texnologiyalar transferi va biznes sektori bilan hamkorlik darajasini ko'rsatadi. Bu jihat oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy rivojlanishdagi rolini ochib beradi.

QS World University Rankings metodologiyasi

QS World University Rankings reytingi universitetlarni baholashda subyektiv va obyektiv indikatorlarni uyg'unlashtirganligi bilan ajralib turadi. Reytingda akademik obro' eng katta ulushga ega bo'lib, u dunyo bo'ylab minglab professor va tadqiqotchilar o'rtasida o'tkaziladigan so'rovnomalar asosida shakllantiriladi.[3] Ish beruvchilar orasidagi obro' indikatorlari esa bitiruvchilarning mehnat bozoridagi talab darajasini aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkich universitet ta'lim dasturlarining amaliyotga yo'naltirilganligi va bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholash imkonini beradi.

QS reytingida ilmiy iqtiboslar soni har bir professor-o'qituvchiga nisbatan hisoblanadi. Bu yondashuv kichik, ammo ilmiy faol universitetlar uchun ham adolatli baholash imkonini yaratadi. Xalqaro talabalar va professorlar ulushi esa universitetning global ochiqiqlik va akademik mobillik darajasini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda QS metodologiyasiga barqarorlik (sustainability) ko'rsatkichining kiritilishi universitetlarning ekologik, ijtimoiy va boshqaruv masalalariga bo'lgan yondashuvini baholash imkonini bermoqda.

Round University Ranking (RUR) metodologiyasi

¹ *Nurmamatova Pokiza, Samarqand davlat chet tillar instituti Xalqaro reytinglar bilan ishlash bo'limi uslubchisi*

Round University Ranking reytingi universitetlarni baholashda to'liq statistik va bibliometrik ma'lumotlarga tayanishi bilan ajralib turadi. Ushbu reyting tizimi to'rt asosiy yo'nalish: ta'lim, tadqiqot, xalqaro diversifikatsiya va moliyaviy barqarorlik bo'yicha jami 20 ta indikatorni qo'llaydi.[4]

Ta'lim yo'nalishi professor-o'qituvchilarning akademik salohiyati, talabalar soni va ilmiy darajalar ulushini qamrab oladi. Tadqiqot ko'rsatkichlari ilmiy maqolalar soni, ularning iqtiboslanish darajasi va tadqiqot faoliyatidan olinadigan daromadlarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro diversifikatsiya indikatorlari xorijiy talabalar va professorlar ulushi, shuningdek xalqaro hamkorlikdagi ilmiy ishlar sonini aks ettiradi. Moliyaviy barqarorlik esa universitetning moliyaviy mustaqilligi va rivojlanish istiqbollari baholashda muhim omil hisoblanadi.

RUR reytingi universitetlarning uzoq muddatli strategik rivojlanishini baholashda foydali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro reytinglarning oliy ta'lim muassasalari faoliyatidagi ahamiyati

Xalqaro reytinglar oliy ta'lim muassasalari faoliyatini baholashda strategik ahamiyatga ega. Avvalo, ular universitetlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi va ta'lim sifati hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirishga turtki bo'ladi. Reytinglardagi barqarorlik ta'lim sifati, ilmiy va xalqaro faoliyat, shuningdek, iqtisodiy ko'rsatkichlarda standart natijalarda turishi bilan baholanadi. Oliy ta'lim muassasalari (OTMlar) orasida reytinglarning tez mashhurligi odatda "ommaviy talabni qondirish va ma'lumotni taqdim etish, bu ishni institutlar va hukumat o'zlari bajarishga qodir emas edi"[2] bilan izohlangan. Shu sababli o'zgarmas natijani qayd qilish uchun oliy ta'lim muassasalari, tashkilotlar mavjud tizimni tubdan isloh qilishi va yaxshi natijalarni amalda ko'rsatishga intilishlari kerak.

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan universitetlar ko'proq xalqaro talabalarni jalb etadi, xorijiy grantlar va ilmiy loyihalarda faol ishtirok etadi. Bu esa universitetlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va ilmiy infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Davlat miqyosida esa xalqaro reytinglar oliy ta'lim siyosatini rejalashtirishda muhim analitik vosita hisoblanadi. Ko'plab mamlakatlarda universitetlarning reytingdagi natijalari asosida moliyalashtirish, akademik mustaqillik va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari shakllantirilmogda.

Xalqaro reytinglarda muvaffaqiyatli ishtirok etish oliy ta'lim muassasalaridan aniq strategik yondashuvni talab qiladi. Quyidagi jadvalda THE, QS va RUR reytinglari asosida umumlashtirilgan ustuvor ko'rsatkichlar, ularning asosiy talablari hamda universitetlar oldidagi vazifalar keltirilgan.

TABLE 1.(Main indicators and weightings of THE, QS, and RUR rankings (updated)

Ranking System	Main Areas	Weight (%)	Indicators
THE	Teaching, Research, Citations, Industry Income, International Outlook	Teaching 29.5, Research 29.0, Citations 30, Industry 4, International 7.5	Student-to-faculty ratio, staff with PhD, citations, industry income, international students/faculty
QS	Research and Discovery, Employability and Outcomes, Learning Experience, Global Engagement, Sustainability	Academic Reputation 30, Citations per Faculty 20, Employer Reputation 15, Employment Outcomes 5, Faculty Student Ratio 10, International Faculty Ratio 5, International	Surveys, citations, student-faculty ratio, international students/faculty, sustainability indicators

		Research Network 5, International Student Ratio 5, Sustainability 5%	
RUR	Education, Research, International Diversity, Financial Sustainability	Education 40, Research 40, International Diversity 10, Financial Sustainability 10%	Faculty capacity, student numbers, publications, citations, international students, financial indicators

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Times Higher Education. World University Rankings Methodology 2025. – London, 2024.
2. Usher, A. and M. Savino (2006), A World of Difference: A Global Survey of University League Tables, Educational Policy Institute, Canadian Education Report Series.
3. QS Quacquarelli Symonds. QS World University Rankings Methodology. – London, 2024.
4. Round University Ranking. RUR World University Rankings Methodology. – Moscow, 2024.
5. Altbach P.G., Reisberg L., Rumbley L.E. Global Perspectives on Higher Education. – New York: Palgrave Macmillan, 2019.
6. Hazelkorn E. Rankings and the Reshaping of Higher Education. – London: Palgrave Macmillan, 2015.
7. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2023.